

QISHLOQ XO'JALIGIDAGI BUZILGAN YER MAYDONLARINING TAHLILI

Musurmankulov Zuxiriddin Shuxratovich –

O'zdavyerloyiha DILI ning tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda respublikamizdagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Tadqiqotimiz davomida respublikamizdagi buzilgan qishloq xo'jaligi yerlarini tahlil qildik hamda tadqiqot obyektimiz hisoblangan Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligi yerlarini buzilish sabablarini o'rgandik.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, buzilgan yerlar, rekultivatsiya, tuproq unumdorligi, sanoat korxonalari.

Kirish. Berilgan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 2024 yil 1 yanvar holatiga 44892.4 ming gektarni tashkil etadi. Respublikamiz yer maydonidan oqilona foydalanish eng ustuvor vazifalardan biridir [1]. Ammo, turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra buzilgan qishloq xo'jaligi maydonlarining hajmi ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari yer fondi yerlaridan maqsadsiz va noto'g'ri foydalanish, o'z vaqtida monitoring qilmaslik, sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun vaqtincha ajratilgan maydonlar birlamchi holatga keltirib o'z vaqtida qaytarilmayotganligidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 169-son qarori bilan yurtimizda buzilgan yerlarga qarshi kurashish, hamda uning salbiy oqibatlarini oldini olish, foydalanishga yaroqsiz yerlarning tuproq unumdorligini yaxshilash yoki qayta tiklash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bir qator vazifalarni belgilab olgan [2].

Qishloq xo'jaligining sug'oriladigan yerlar tuprog'ida gumus miqdorining

kamayishi, botqoqlashish, cho'llashish, gipslashish, begona o'tlar bosishi, sho'rlanish holatlari davom etishi va ularning hisobini olish, tuproqning sifat ko'rsatkichlari o'zgarish holatini monitoring qilib borish [3], buzilishini oldini olish bo'yicha bugungi kungacha tizimli tavsifga ega ishlar yetarli darajada olib borilmagan. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligida "Yerlar degradatsiyasi jarayonlari bilan kurashish masalalari bo'yicha departament" va hududlarda "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish bo'limlari" tashkil etilgan [4].

Berilgan rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Toshkent viloyatining umumiy yer maydoni, 2024-yil 1-yanvar holatiga, 1515 ming gektarni tashkil etadi [1]. Xususan, olingan ma'lumotlarga qaraganda, hozirda birgina Toshkent viloyatida yer osti qazilma boyliklarini qazib olish ishlari bilan shug'ullanuvchi 140 ta sanoat korxonalari mavjud. 2024-yilda bu korxonalar umumiy hisobda 324.2 gektar buzilgan maydonni rekultivatsiya qilib topshirishi zarur. Bu atiga 2024-yil uchun va faqatgina Toshkent viloyati misolidadir. Respublika miqyosida bu hisob kitoblar ancha katta ko'rsatkichga ega bo'ladi [5].

O'zbekiston Respublikasi Kadastr agentligining bergan rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, mamlakat bo'yicha bugungi kunda strategik ahamiyatga ega bo'lgan va qazib olish faoliyati natijasida 31987 gektar buzilgan yerlar mavjudligi aniqlanib, ulardan 29965 gektari foydalanishda ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Shuningdek, hududlarda qishloq xo'jaligi yerlaridan muhandislik infratuzilma obyektlari o'tkazilishi, zovurlar qazilishi, yerdan foydalanuvchilarning ma'sulyatsizligi oqibatida va boshqa sabablarga ko'ra buzilgan 2493 gektar yer maydonlari aniqlandi. Mavjud yer qonunchiligi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarga buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish va oldingi, birlamchi holatga qaytarish bo'yicha 2022-2025 yillarda ishlar jadvali belgilab olindi.

1 - jadval

Respublika bo'yicha buzilgan yerlar maydonlarini 2022-2025 yillarda
rekultivatsiya qilish reja jadvali

Respublika va viloyatlar nomi	Buzilgan yer maydonlarini rekultivatsiya qilish muddatlari(yil)					Xarajatlar miqdori
	2022	2023	2024	2025	jami	mln.so'm
Qoraqalpog'iston	116.5	117.4	126.5	105.7	466.3	8124.0
Andijon	94.4	71.2	65.8	52.8	284.2	5848.4
Buxoro	420.5	187.1	154.1	132.6	738.3	26485.7
Jizzax	88.2	64.9	47.4	56.2	256.7	5031.4
Qashqadaryo	629.9	321.0	255.7	236.2	1113.8	21686.0
Namangan	64.7	33.1	33.4	20.6	151.7	285.9
Navoiy	466.2	485.2	455.5	317.1	1724.0	3606.1
Samarqand	358.0	48.1	37.7	81.5	525.3	3466.0
Surxondaryo	109.0	114.2	107.7	126.4	454.7	8263.2
Sirdaryo	85.8	86.5	83.5	82.5	338.3	8644.8
Toshkent	285.5	333.5	333.2	387.4	1339.6	12012.0
Farg'ona	19.8	24.8	19.7	18.3	82.5	743.7
Xorazm	7.0	9.6	11.6	9.6	37.8	641.0

1.2.1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, antropogen omil ta'sirida buzilgan yerlarni tiklash uchun katta miqdorda mablag'lar ajratiladi. Ayniqsa Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida ancha katta maydonlarda rekultivatsiya qilish ishlarini olib borishga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida rekultivatsiya qilinishi lozim bo'lgan maydonlarni monitoring qilish usulini yanada takomillashtirish, rekultivatsiyalash ishlarini o'z vaqtida sifatli olib borilishini ta'minlaydigan omillardan biri sanaladi.

Tadqiqotimiz davomida Toshkent viloyatidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning buzilish sabablari o'rganildi. 1-rasmda ko'rishimiz mumkinki Toshkent viloyatidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning buzilish sabablari asosan 4 ga ajratishimiz mumkin. Bularga sanoat korxonalari, kollektor zovurlarini tozalash, avtomobil yo'llarini qurish va qurilish chiqindilarini to'kilishini aytishimiz mumkin.



1-rasm. Toshkent viloyatidagi sug'riladigan qishloq xo'jaligi yerlarini buzilishiga sabab bo'luvchi omillar

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki qishloq xo'jaligi yerlari asosiy ishlab chiqarish obyekti hisoblanadi. Bunday yerlardan oqilona foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa avvalo qishloq xo'jaligi yerlarini buzilishini oldini olishimiz, o'z vaqtida monitoring ishlarini amalga oshirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Milliy hisoboti. -Toshkent: 2024.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-iyungi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-

<https://scientific-jl.com/>

17-to'plam 1-son Mart 2025

tadbirlari to'g'risida" gi 277-sonli qarori

3. Reclamation of Disturbed Land in Russia: State of the Art. E.N.Tsoraeva and Y.V.Zaitseva Kuban State Agrarian University named after I.T.Trubilin, 13 Kalininastr., KubGAU

4. Turayev R.A Yer monitoringi / O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2022

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr Agentligi ma'lumotlari.